

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 18 554,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 104,5 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,5 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


| | | Mldr. so'm | | 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, % da |
|----------------------|----------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|------------------------------------------------------------------|
| | | 2019- yil yanvar- sentabr | 2020- yil yanvar- sentabr | |
| I. YaHM | | 16 162,1 | 18 554,6 | 104,5 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 15 494,6 | 18 051,2 | 104,4 |
| | Mahsulotlarga sof soliqlar | 667,5 | 503,4 | 104,7 |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 15 494,6 | 18 051,2 | 104,4 |
| | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 6 968,7 | 7 969,3 | 104,4 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 3 115,4 | 3 821,9 | 110,6 |
| | sanoat | 1 993,4 | 2 415,2 | 110,4 |
| | qurilish | 1 122,0 | 1 406,7 | 110,9 |
| Xizmatlar | | 5 410,5 | 6 260,0 | 100,9 |

| | | Mlrd. so'm | | 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da |
|--|--------------------------------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------------------------------|
| | | 2019- yil yanvar-sentabr | 2020- yil yanvar-sentabr | |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 208,8 | 1 349,4 | 99,0 |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 866,2 | 980,9 | 104,2 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 3 335,5 | 3 929,7 | 100,8 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6 552,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 % ga yuqoridir.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,9 % punktga kamaydi va hisobot yilida 44,1 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 13,4 % dan iborat bo'lib, 0,5 % ga oshdi, qurilishniki esa 0,6 % punktga o'sdi va 7,8 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 34,7 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,2 % punktga pasaydi.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

| | | <i>2019- yil</i> | <i>2020- yil</i> |
|---------------------------------------------------|--------------------------------------------------|------------------|------------------|
| I. YaHM, jami | | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 95,9 | 97,3 |
| | Mahsulotlarga sof soliqlar | 4,1 | 2,7 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | | 100,0 | 100,0 |
| | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 45,0 | 44,1 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 20,1 | 21,2 |
| | Sanoat | 12,9 | 13,4 |
| | qurilish | 7,2 | 7,8 |
| Xizmatlar | | 34,9 | 34,7 |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 7,8 | 7,5 |

| | | 2019- yil | 2020- yil |
|--|-----------------------------------------|-----------|-----------|
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,6 | 5,4 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 21,5 | 21,8 |





Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog`liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 104,4 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 44,1 %), sanoatda – 110,4 % (13,4 %), qurilishda – 110,9 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 100,9 % ni (34,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 99,0 % (7,5 %) kamayish, tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,2 % (5,4 %) hamda boshqa xizmat tarmoqlarida 100,8 % (21,8 %) o'sish holatlari kuzatildi.




**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i YaHMning 1,9 f.p., sanoat 1,3 f.p., qurilish 0,8 f.p., hizmatlar 0,3 f.p. ga o'sishiga hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YaHMning 0,2 f.p. ga o'sishi ta'minlandi.



2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi



2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,9 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 114,6 va qurilishda – 113,0 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

